

KIBERXAVFSIZLIK

Madatov Quvonchbek Geldiyor o'g'li
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti o'qituvchisi
O`rinova Go`zalxon To`lqinjon qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada kiberxavfsizlik tushunchasi, uning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan bir paytda, axborot xavfsizligini ta'minlash dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. Maqolada kibertahdidlar turlari, ularning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini hamda himoyalash usullari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat va xususiy sektor darajasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xalqaro hamkorlik va qonunchilik asoslari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va ilg'or texnologiyalardan foydalanish kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar. axborot texnologiyalari, tijorat tashkilotlari, texnologiyalar, iqtisodiyot, kiberxavfsizlik, kiberhujum.

Kirish. Bugungi raqamli davrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Davlat idoralari, tijorat tashkilotlari va oddiy foydalanuvchilar o'z faoliyatlarida ko'plab raqamli vositalardan foydalanmoqda. Biroq bu qulayliklar bilan birga, muhim xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, shaxsiy va korporativ ma'lumotlarning himoyasi, axborot tizimlarining barqaror ishlashi muhim masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik bugungi kunda nafaqat texnologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham dolzarb sohaga aylangan. Kiberxavfsizlik — bu raqamli tizimlar, tarmoqlar va ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish, o'g'irlash, o'zgartirish yoki yo'q qilishdan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. So'nggi yillarda dunyo bo'ylab ro'y berayotgan turli kiberhujumlar bu sohaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu bois, axborot xavfsizligini ta'minlash har bir tashkilot va foydalanuvchining ustuvor vazifasiga aylanishi zarur. Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir davrda yashayapmiz. Internet, mobil ilovalar va bulutli xizmatlar orqali turli ma'lumotlar almashinuvi kundalik holga aylangan. Biroq bu qulayliklar bilan birga, axborotlarni yo'qotish, buzilish yoki ruxsatsiz foydalanish kabi xavflar ham ortib bormoqda. Aynan shu sababli kiberxavfsizlik masalasi global miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylangan[4;34].

Kiberxavfsizlik — bu axborot tizimlari va ma'lumotlarni turli kiberhujumlardan himoya qilishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ushbu soha faqat texnik chora-tadbirlar bilan cheklanmay, balki foydalanuvchilarning xabardorligini oshirish, xavfsizlik siyosatlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy dunyoda axborot — bu eng qimmatli resurslardan biri, uni himoya qilish esa har qanday tashkilot va foydalanuvchi uchun ustuvor vazifadir. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi insoniyat hayotining deyarli barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar vositasida ma'lumotlarni yaratish, uzatish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatlarining kengayishi bilan birga, ushbu jarayonlarning xavfsizligini ta'minlash masalasi ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, davlat idoralari, tijorat tashkilotlari va ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan kiberxavf-xatarlar kiberxavfsizlik konsepsiyasini jahon miqyosida muhim muammolardan biriga aylantirmoqda[5;19].

Kiberxavfsizlik — bu axborot resurslarini ruxsatsiz kirish, zararli dasturlar, hujumlar va boshqa tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan choralar, siyosatlar va texnologiyalar majmuidir. Hozirgi kunda kiberxavfsizlik nafaqat texnik masala, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolar bilan ham chambarchas bog'liq. Ushbu mavzuni chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni

samarali hal etish yo'llarini ishlab chiqish bugungi raqamli transformatsiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega[1;89].

Natijalar va tahlil. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, kiberxavfsizlik bugungi kunda har bir soha uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan strategik yo'nalishdir. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiberxavf-xatarlar soni va ko'lami ham ortib bormoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab tashkilotlar, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillari kiberxavfsizlikka yetarlicha e'tibor qaratmayapti. Bu esa ularni turli zararli dasturlar, xakerlik hujumlari va ma'lumotlar buzilishiga nisbatan zaif holatda qoldiradi.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi muhim jihatlar ajratib ko'rsatildi[6;90]:

Foydalanuvchilarning xabardorligi pastligi — ko'plab kiberxavfsizlik hodisalari aynan insoniy xatolar tufayli yuz beradi.

Texnik himoya vositalarining yetishmasligi — ayrim tashkilotlarda antivirus, firewall, SIEM kabi tizimlar yo'q yoki eskirgan.

Xavfsizlik siyosatining yo'qligi — korxonalar ichida aniq xavfsizlik siyosati va standartlariga amal qilinmasligi tizim zaifligini kuchaytiradi. Shu asosda, kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar zarurligi aniqlanmoqda:

Foydalanuvchilarni muntazam ravishda axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish va treninglar o'tkazish;

Texnologik vositalarni yangilash va avtomatlashtirilgan xavfsizlik tizimlarini joriy etish;

Kiberhujumlarga qarshi strategik rejalar ishlab chiqish va muntazam testlar o'tkazish;

Huquqiy va tashkiliy asoslarni kuchaytirish, kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish. Umuman olganda, zamonaviy jamiyatda kiberxavfsizlik — bu faqat texnologik masala emas, balki kompleks yondashuvni talab qiladigan muhim strategik yo'nalishdir. Har bir foydalanuvchi va tashkilot kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishga hissa qo'shishi lozim. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kiberxavfsizlik zamonaviy jamiyatning ajralmas va strategik muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bilan bog'liq holda kiberxavf-xatarlar ham jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Ayniqsa, moliyaviy sektor, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va davlat idoralari kabi sohalarida kiberhujumlar ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda kiberxavfsizlikka oid muammolar quyidagi omillar bilan bog'liq[3;73]:

Texnik jihatdan himoyaning sustligi – himoyalangan tarmoqlar, eskirgan dasturiy ta'minotlar va avtomatlashtirilmagan xavfsizlik tizimlari.

Inson omili – foydalanuvchilarning xabardorligi yetarli emasligi, parollar bilan ehtiyotsiz munosabat va ijtimoiy muhandislikka uchrash hollari.

Tashkiliy va huquqiy bo'shliqlar – aniq xavfsizlik siyosatlarining yo'qligi yoki ular ustidan nazoratning sustligi.

Shuningdek, kiberxavfsizlikni ta'minlashda quyidagi asosiy yondashuvlar eng samarali vosita sifatida e'tirof etildi: Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va joriy etish; Zamonaviy himoya vositalaridan foydalanish (firewall, antivirus, SIEM, DLP va boshqalar); Xodimlar va foydalanuvchilarni muntazam o'qitish va ogohlantirish tizimini yo'lga qo'yish; Kiberxavfsizlik bo'yicha milliy va xalqaro standartlarga amal qilish[2,56].

Xulosa. Bugungi raqamli asrda kiberxavfsizlik muammolari global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi inson hayotini qulaylashtirayotgan bo'lsa-da, bu bilan birga yangi xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiberxavfsizlik faqat texnik vositalar orqali emas, balki foydalanuvchilarning xabardorligi, tashkilotlarda xavfsizlik siyosatining mavjudligi, hamda doimiy monitoring va nazorat orqali ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jel'nikov V. Kriptografiya ot papirusa do komp'yutera. M.: ABF, 1997. –
2. Nil's Fergyson, Bryus SHnayer «Prakticheskaya kriptografiya», M.: Izdatel'skiy dom «Vil'yams», 2005g. -424s.
3. Petrov A.A. «Komp'yuternaya bezopasnost'. Kriptograficheskie metodi zashiti», M.: DMK, 2000g. -448s.
4. Koblits N. Kurs teorii chisel v kriptografii. – M., Nauchnoe izdatel'stvo TVP,
5. Maslennikov A. Prakticheskaya kriptografiya BHV – SPb 2003y.
6. SHnayer Bryus. Prikladnaya kriptografiya. Protokoli, algoritmi, ishodnie teksti na yazike Si. Triumf-2002y.

**СОЦИАЛЬНАЯ ИЕРАРХИЯ В АНГЛИЙСКОЙ И КИТАЙСКОЙ
ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ОБРАЩЕНИЙ И
КОММУНИКАТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ**

Маликишеева Лаззат Бауыржан кызы
Студентка 1 курса Каракалпакского государственного университета имени
Бердаха, Факультет иностранных языков,
Сейтжанова Луиза Тахировна
Научный руководитель, преподаватель в Каракалпакском государственном
университете имени Бердаха, Факультет иностранных языков,

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ проявления социальной иерархии в английской и китайской лингвокультурах. Особое внимание уделено системе обращений, грамматическим конструкциям и коммуникативным стратегиям, отражающим социальные роли и статусные различия в обоих языках. Анализ основан на конфуцианских ценностях, лежащих в основе китайской культуры, и демократических принципах, характерных для англоязычных стран. Выявлены ключевые различия в выражении уважения, формальности и степени социального дистанцирования в различных коммуникативных ситуациях. Сделаны выводы о значимости культурных факторов в формировании и развитии языковой иерархии.

Ключевые слова: социальная иерархия, лингвокультура, китайский язык, английский язык, система обращений, грамматические конструкции, коммуникативные стратегии, конфуцианские ценности, вежливость в языке, глобализация и язык, интернет-сленг, формальность и неформальность, межкультурная коммуникация, языковой этикет, культурные различия

Введение. Иерархия — это система распределения ролей и статусов, основанная на подчинении одних элементов другим. В социальном контексте иерархия регулирует отношения между членами общества, определяя их права, обязанности и место в социальной структуре.

В языковом плане иерархия проявляется через выбор речевых стратегий, использование формальных и неформальных обращений, соблюдение субординации и демонстрацию уважения к социальному статусу собеседника. В зависимости от культурных ценностей разных народов, способы выражения иерархии в языке могут существенно различаться.

Социальная иерархия и культурные ценности играют значительную роль в формировании языковых норм и правил речевого поведения. В китайской и английской лингвокультурах иерархия выражается по-разному, что обусловлено различиями в историческом, философском и социальном контексте. В китайской культуре, основанной на конфуцианских принципах, важны уважение к старшим, соблюдение субординации и акцент на коллективизм. В